

2024- yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 3 666,0 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3 584,8 mlrd. so'mni (103,3 %), o'rmon xo'jaligi - 71,0 mlrd. so'mni (102,7 %), baliqchilik xo'jaligi -10,2 mlrd. so'mni (173,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

**3 666,0**

Surxondaryo viloyati bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm

01

**3 584,8**

Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

02

**71,0**


O'rmon xo'jaligi

03


**10,2**

Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2024- yilning yanvar-mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,8 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 1,9 % i - o'rmon xo'jaligi, 0,3 % i - baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (530 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on tumanlarida (353 mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bandixon tumani (72 mlrd. so'm) va Termiz shahrini (12 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Sariosiyo (109,0 %), Sherobod (108,3 %), Muzrabot (104,8 %), Bandixon (104,4 %), Sho'rchi (104,1 %), Angor (103,9 %) va Oltinsoy (103,6 %) tumanlarida kuzatildi. Uzun (102,9 %), Qiziriq (102,6 %), Boysun (102,3 %), Termiz (102,1 %), Qumqo'rg'on (101,7 %), Jarqo'rg'on (101,0 %), Denov (100,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, %




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 533,3 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 572,7 mlrd. so'mni (101,5 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 960,6 mlrd. so'mni (103,8 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

16,2 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



83,8 %
Chorvachilik
mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 83,8% i - dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,4 % i - fermer xo'jaliklariga, 5,8 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2024- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Denov tumanida (22,6 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (98,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Sherobod tumanida (25,7 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Qiziriq tumanida (0,8 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Sherobod tumanida (57,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun tumanida (0,3 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 572,7 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 16,2 % ni tashkil qildi.

Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 490 t. kartoshka (2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 22,5 % ga kam) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 100,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmogda.

Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 22,9 ming t. sabzavot (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 100,1 %) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
sabzavot yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2024- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 960,6 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 83,8 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 38,3 ming t. go'sht (2023- yilning yanvar -martiga nisbatan 103,7 % ga ko'p), 149,9 ming t. sut (103,6 % ga ko'p), 116,5 mln. dona tuxum (106,8 % ga ko'p), 95,0 t. jun (117,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi va 463,8 t. baliq (189,2 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 38,3 ming t. go'sht (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 103,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Surxondaryo viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 149,9 ming t. sut (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 116,5 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 6,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 53,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum hajmi,
ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 463,8 t. (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 189,2 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 55,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yining 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 19,4 % i fermer xo'jaliklariga, 77,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 28,4 % i fermer xo'jaliklariga, 68,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,0 % i fermer xo'jaliklariga, 54,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2024- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 045,0 ming boshga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 24,2 ming boshga (2,4 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yichayirik
shoxli qoramollarning umumiy
bosh soni,
ming bosh**




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 376,2 ming boshga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 2,9 ming boshga (0,8 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Surxondaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 574,9 ming boshga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 57,1 ming boshga (2,3 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqaxo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 77,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 16 410 taga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 606 taga (3,8 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 68,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Surxondaryo viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5408,5 mingtaga yetdi.


2023 - yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 455,1 mingtaga (9,2 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 54,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 76-225-65-78